

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь

TUPROQQA ASOSIY ISHLOV BERISHDA CHIGIT UNIB CHIQUISHINING G‘O‘ZA HOSILIGA TA’SIRI

“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalari instituti
Yusupov Fuzayl Farxod o‘g‘li

Annotatsiya. Ushbu maqolada tuproqqa asosiy va ekish oldi tadbirlarni traktorlar bilan ishlov berilganda chigitning unib chiqishi, ildiz tizimi shakllanishi va hosildorligiga ta’siri buyicha ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tuproq, chigit, shudgor, suv, traktorlar, barona, mola, o‘nib chiqish, ildiz tizimi, hosildorlik.

THE EFFECT OF SEED GERMINATION ON COTTON YIELD IN MAIN TILLAGE

Abstract. This article provides information on the effect of the main and pre-sowing actions on the soil on seed germination, root system formation and productivity when treated with tractors.

Key words: soil, seed, plow, water, tractors, storm, mola, germination, root system, productivity.

ВЛИЯНИЕ ПРОРАСХОЖДЕННОСТИ СЕМЯН НА УРОЖАЙНОСТЬ ХЛОПКА ПРИ ОСНОВНОЙ ОБРАБОТКЕ

Абстрактный. В статье приведены сведения о влиянии основных и предпосевных воздействий на почву на всхожесть семян, формирование корневой системы и урожайность при обработке тракторами.

Ключевые слова: почва, семена, плуг, вода, тракторы, буря, мола, всхожесть, корневая система, продуктивность.

Kirish. Bugungi kunda dunyo paxtachiligida resurs va energiyalardan samarali foydalanish, ularni tejaydigan texnologiya va texnika vositalarini qo‘llash, tuproqqa asosiy va ekish oldi yerni sifatli tayyorlash, oraliqlarini ishlab chiqish orqali tuproqning agronomik xususiyatlarini yaxshilash, unumdorligini oshirish hamda yuqori va sifatli paxta hosili yetishtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorligini oshirishda eng asosiy omillardan biri ekishdan avval chigitga o‘z vaqtida va to‘g‘ri ishlov berishni tashkil etish, chigitni

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь

unib chiqishi va rivojlanishi jarayoniga ta'sir etuvchi mikroorganizmlardan tozalash, kasalliklarga qarshi kurash choralarini ishlab chiqishdir. Tuproqning zichlanishiga qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan har xil mexanik agregatlarning ta'siri turlicha bo'lib, ular chigitning unib chiqishiga, g'o'zaning o'sib rivojlanishiga turlicha ta'sir ko'rsatishi bizga ma'lum

Asosiy qism. G'o'za va uning majmuidagi ekinlarni yetishtirishda tuproqqa asosiy ishlov berish muammolari hozirgi kunda ham dolzarb hisoblanadi. Bu borada nafaqat bizning mamlakatimizda, balki chet elda ham batafsil va chuqur ilmiy izlanishlar olib borilishi natijasida oxirgi yillar haydamasdan ekishga katta ahamiyat berilmoqda. Tuproq va urug'dagi o'simlikni rivojlanishi va hosildorlikni pasayishiga olib keluvchi kasalliklarga qarshi kurashda uzoq yillardan beri kimyoviy zaxarli moddalardan foydalanib kelinadi. Kimyoviy usullardan foydalanish keng ko'lamda o'rganilgan va qishloq xo'jaligida keng ko'lamda yo'lga qo'yilgan, lekin ular xizmat ko'rsatuvchi ishchilarning sog'ligiga va atrof muhitga kuchli zarar keltiradi

Ko'pgina xorij mamlakatlarida tuproqni muhofaza qilishda Janubiy Amerikada, AQSH, Avstraliyada ilmiy asoslarini aniqlangan hamda uni tegishli sharoitlarga moslab kengaytirish borasida FAO, CGIAR, milliy qishloq xo'jalik



ilmiy korxonalarini, nodavlat tashkilotlar, fermerlar va ularning uyushmalariga joriy etilib kelinmoqda [10]. Hozirgi kunda Derpsch dehqonchilik yuritishda tuproqni muhofaza qiluvchi tizimi Braziliyaning umumiy haydov maydonidan 1/3 qismida (17,4 mln. ga), Argentinaning 1/2 qismida (13 mln. ga) va dunyo bo'yicha 70 mln.ga maydonda joriy etilgan

Tuproq yuzasida o'simlik qoldiqlari qoldirilgan holda yerni shudgor qilmasdan, chizel yoki boronalar bilan tuproq yuzasiga ishlov berish natijasida

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь

tuproqni himoya qilish texnologiyalari resurstejamkor texnologiyalar bilan birgalikda (kompleks holda) ishlatilib kelinmoqda (www.conservacion agriculture; www.zero tillage, Soil and Tillage Research Journal) Shuningdek, zanjirli T-4A traktori bilan shudgor qilingan maydonni Magnum-8940 traktori bilan borana+mola o'tkazilgan variantda chigitning unib chiqishi dastlabki bajarilgan ishlardan farq qilgannin ko'rish mumkin. Kunlar o'tishi bilan chigitning unib chiqish darajasi yuqorilaganini tashkil etganligi va g'ildirakli Magnum-8940 traktori bilan yer tayyorlashda to'liq ishlov berilgan variantga nisbatan chigit 1,2% ga ko'proq unib chiqqanligi ma'lum bo'lganini olingan ma'lumotlardan guvoh bo'lishimiz mumkin. Yerga asosiy ishlov berish texnikalarini kombinatsiyalashtirilgan variantda, ya'ni g'ildirakli Magnum-8940 traktori bilan shudgor qilingan maydonni zanjirli T-4A traktori bilan erta bahorda borana+mola qilingan variantda chigitning unib chiqishi boshqa variantlarga nisbatan ortishi mumkin, oradan kunlar o'tgandan so'ng chigit unib chiqishi barcha variantlarga nisbatan yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lganligi aniqlandi.

Xulosa. O'rganishlarga asosan eng yuqori hosildorlik Magnum-8940 traktori bilan shudgor qilinib, ekish oldi tadbirlarini zanjirli T-4A traktori bilan boranalash va molalash o'tkazilgan variantdan olinib o'rtacha ishlov berish unumdorligi yuqori bo'lishligini o'rganilgan mavjud ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hamza, M.A., Anderson, W.K., 2003. Responses of soil properties and grain yields to deep ripping and gypsum application in a compacted loamy sand soil contrasted with a sandy clay loam soil in Western Australia. Aust. J. Agric. Res. 54, P. 273-282.

2. file:///C:/Users/admin/Downloads/paxta-chigiti-unuvchanligi-rivojlanishi-va-hosildorligini-oshirishda-elektr-texnologiyalarning-samarasi.pdf

2. Agro ilm maxsus son (1) 78-80 betlar

3. Derpsh R. Historical review of no – tillage cultivation of crops. Conservation tillage systems and management. First edition. 1992. P. 29-52.

4. Мухаммаджонов М., Зокиров А. Ёўза агротехникаси китоби. 1995, Тошкент, Б. 173-179